

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA BOLALAR UCHUN
MARKAZLARNING AXAMIYATI**

*"Profî university" maktabgacha talim yonalishi
201-gurux talabasi
Mirzaraximova Muborak yozgan maqolasi*


Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lismiz tizimini takomillashtirish yo'llari, maktabgacha ta'lismiz jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish mazmuni, maktabgacha ta'lismiz jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lismiz, pedagog, innovatsiya, faoliyat, takomillashtirish, texnologiya, malaka, jarayon, zamonaviy, rivojlanish, usullar.

KIRISH

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi -til orqaligina berish mumkin. Zamonaviy maktabgacha ta'lismiz tashkilotlari –bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta'lismiz muassasalarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlarini va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bolgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga i. Bugungi kunda ta'lismiz sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'lismiz tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi.

TADQIQOT NATIJASI—Il Bizningcha, maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlari bolaning o'sish va rivojlanish taraqqiyotida muhim o,,rin egallaydi. Chunki maktabgacha ta'lismiz umumiy maqsadi bolani maktab ta'limga sifatli tayyorlashdan iborat



Endi pegagogik klaster tuzilishiga izoh beramiz: Bola tug'ilganidan uch yoshgacha oilada ta'llim tarbiya oladi. Ijtimoiy hayotga moslashadi. Bu yoshda barcha informatsiyani oila a'zolaridan o'r ganib, o'zlashtiradi. Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'gan davr bola hayotining eng asosiy rivojlanish davri hisoblanadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha bola hayoti davomida oladigan barcha informatsiyaning 70% ini aynan maktabgacha yosh davriga to'g'ri kelar ekan. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishi va rivojlanishida tarbiyachining o'mi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv - tarbiyaviy faoliyati beshta rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etiladi. Ular quyidagilar: Bolaga yangi mavzu haqida tushunchalar berilib, markazlardagi faoliyatlar orqali ularning bilimlari rivojlantirilib boriladi. Markazlarda ishslash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatları, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkonini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqilizlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir. Rivojlantirish markazlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o'yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, video namoyishlari, ijodiy faoliyat, tajribalardan foydalanib faoliyat olib borish ta'llim samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Ilk qadam davlat o'quvdasturi asosida maktabgacha ta'llim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi: -Qurilish va konstruksiyalash markazi -Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi -Til va nutq -Ilm-fan va tabiat markazi -San'at markazi -Musiqa va ritmika markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'llim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan xolda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birlgilikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongi tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar).

Bolalarning o'z tanlovlарини amalga -oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 5 ta markazlar bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan xolda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilalar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lган bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni xal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin.

MUHOKAMA

Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xoxish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni -o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin. Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik naqia ko'rinishlarini o'ynashga xoxish-istik uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinalarini tushuni yetishlariga yordam beradi. Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin.

XULOSA Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlanish markaz faoliyatlarida bolalarga quyidagilar o'rgatiladi -muammolarni eta olish; -ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish; -odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilishni. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlikqobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'tadi.